IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 02 May 2026

O’ZBEKISTONDA TO’QIMACHILIK VA TRIKOTAJ MAHSULOTLARI TARIXINING TARIXSHUNOSLIGI(1940-1980-YILLAR MISOLIDA)

Qahramonova Shodiya
O‘zMU tarix mutaxassisligi1-kurs magistanti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 40-80-yillarida O‘zbekistonda yengil sanoatining bir bo‘lagi bo‘lgan to’qimachilik va trikotaj sanoati tarixining tarixshunosligi tahlil qilinadi. Bunda asosan, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar sovet davri, mustaqillik davri va xorijiy tadqiqotlar kesimida o’rganilib, ularning mazmuni, yondashuvlari va ilmiy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari O’zbekiston sanoat tarixini o’rganishda tarixshunoslik yondashuvining ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so’zlar: To’qimachilik, trikotaj, yengil sanoat, fabrika, sun’iy tola, fabrika, paxta tolasi.

O’zbekiston sanoati tarixida to’qimachilik va trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish muhim o’rin egallaydi. XX asrning 40 – 80-yillarida mazkur soha respublika iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan bo’lib, aynan shu davrda ko’plab yangi korxonalar barpo etildi, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilgan. Mazkur jarayonlar turli davrlarda bir qator tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan bo’lsa-da, ularning ilmiy yondashuvlari, baholash mezonlari va xulosalari bir xil bo’lmagan. Sovet davrida yaratilgan asarlarda yengil sanoatning tarkibiy qismi bo’lgan to’qimachilik va trikotaj sanoati asosan industrial rivojlanish yutuqlari, reja topshiriqlarining bajarilishi hamda ishlab chiqarish hajmlarining oshishi nuqtayi nazaridan talqin etilgan. Mustaqillik yillarida chop etilgan tadqiqotlarda esa mazkur soha tarixiga nisbatan yanada xolis va tahliliy yondashuv kuchayib, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlar hamda ayrim hududiy xususiyatlarga e’tibor qaratila boshlandi. Shu bois, XX asrning 40–80-yillarida O’zbekistonda to’qimachilik va trikotaj sanoati tarixining tarixshunosligini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi XX asrning 40 – 80-yillarida O’zbekistonda to’qimachilik va trikotaj sanoati masalalari yoritilgan ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish hamda turli davrlarda mazkur sohaga berilgan baholarning o’ziga xos jihatlarini aniqlashdan iborat.

Ushbu mavzuning tarixshunosligini shartli ravishda uch guruhga bo’lib o’rganildi. Birinchi guruhga sovet davrida nashr etilgan adabiyotlar, ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida olib borilgan tadqiqotlar va yaratilgan kitoblar, uchinchi guruhga mavzuga oid xorijda nashr qilingan maqola va adabiyotlarni kiritish mumkin. Birinchi guruhga kiruvchi adabiyotlarda yengil sanoatning tarkibiy qismi bo’lgan to’qimachilik va trikotaj sanoati haqida ko’plab ma’lumotlar olish mumkin[1]. Sovet davrida yaratilgan ilmiy adabiyotlarda asosan respublika sanoatining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi hamda iqtisodiy ko’rsatkichlar masalasiga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, to’qimachilik va trikotaj sanoati rivoji ko’proq umumiy sanoat

[1] Ўзбекистон енгил саноати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.; Зименко В., Кириленко В. Марғилон ипаги. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – 60 б.; Зиёдуллаев С. Ўзбекистон енгил саноатини ривожлантириш истиқболлари. – Тошкент: Фан, 1972. – 64 б.; Марасулов Ш.Р. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 36 б., Ходжаев Ш. От тележки – к конвейру // Экономика и жизнь. 3 марта 1973 года. – С. 41-43.; Ковынев Н. Андижанская трикотажная // Экономика и жизнь. 3 марта 1973 год.; Раимқулов С. ва б. Енгил саноат - халқ хўжалиги комплексининг муҳим бўғини. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 16 б.; Балтаев Т. Сбалансированность спроса и предложения товаров легкой промышленности. (региональные проблемы). – Ташкент: Фан, 1986.; Веревкина Н. С полной мерой ответственности // Партияная жизнь. 1989. №2. – С. 25-26.

taraqqiyoti doirasida yoritilgan. Xususan, O'zbekistonda to'qimachilik sanoati tarixi B.Qodirova va I.Semyannikovlar risolasida bir qadar o'rganilib, mualliflar sohada yuz bergan o'zgarishlar va siljishlar haqida to'xtalib, bularning barchasini muvaffaqiyat sifatida e'tirof etadi. Sovet davlati to'qimachilik korxonalarini paxta xom ashyosi bilan ta'minlash maqsadida O'rta Osiyo qishloq xo'jaligida paxta ekiladigan maydonlarini kengaytirish tomon yo'l tutganligi va to'qimachilik sanoatini yetishtirilgan paxta bilan to'liq ta'minlaydigan darajada ko'p hosil yetishtirish mumkinligini ta'kidlaydi[2].

O'zbekistonda paxta xom ashyosining asosiy qismi yetishtirilishiga qaramasdan sovet hukumati o'lkada to'qimachilik fabrikalari qurilishini 70-yillarga kechiktirib, rejada ko'rsatilgan masalalarni paysalga solib keladi. Shuningdek, risolada 1932-yil mayda Toshkent to'qimachilik kombinati qurilishi boshlanganligi alohida e'tirof etiladi[3]. Mazkur risolada mualliflar O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining shakllanishi va rivojlanishini asosan ijobiy jarayon sifatida talqin qilgan. Ular paxta yetishtirish hajmining oshishi va xomashyo bazasining kengayishini to'qimachilik sanoatining rivojlanishida muhim omil sifatida ko'rsatadi. Biroq, mazkur tadqiqotda sovet davri iqtisodiy siyosatining ayrim muammoli jihatlari yetarlicha ochib berilmagan. Xususan, respublikada paxta xom ashyosi yetishtirish kengaytirilgan bo'lsa-da, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish, yangi fabrikalar qurish masalasi ko'p hollarda markaziy siyosati tufayli kechiktirilgani ko'zga tashlanadi. Shu sababli, risola sovet davri to'qimachilik sanoatidagi o'zgarishlar haqida muhim ma'lumotlar bersa-da, unda jarayonlar ko'proq sovet iqtisodiy siyosatini ijobiy ruhda talqin qilish asosida yoritilganini ko'rish mumkin. O'zbekiston yengil sanoatini tahlil qilgan Sh.Marasulov "SSSRDA sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistonning tutgan o'rnini tahlil qilib, respublika paxta tolasi, pilla yetishtirish va paxtachilik sohasi uchun mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinda, to'qimachilik mashinalari va ip gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda, shoyi gazlamalar bo'yicha uchinchi o'rinda turganligini keltirib o'tadi. Muallif to'qimachilik sanoatining o'rnini alohida ko'rsatib, SSSRDA ishlab chiqarilgan har 100 metr gazlamaning 70 metri O'zbekiston paxtasidan to'qilganligini" – ta'kidlaydi[4]. Tadqiqotchilar A. Asanov va M. Nabixonovning "O'zbekiston SSRning iqtisodiy va sotsial geografiyasi" asarida qayd etilishicha, trikotaj mahsulotlari 1939-yildan boshlab Qo'qon paypoq-trikotaj fabrikasida, shuningdek Andijon, Toshkent trikotaj fabrikalari hamda Samarqand, Buxoro, Jizzax ustki trikotaj fabrikalarida ishlab chiqarila boshlangan[5]. Mualliflar mazkur jarayonni respublikada trikotaj sanoatining shakllanishi va uning hududiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq holda izohlaydi.

H. Fayziyev va H. Hakimov[6] tomonidan yozilgan o'quv qo'llanmada O'zbekiston to'qimchalik korxonalarining yigiriv-to'quv fabrikalarida paxtadan ip-kalava tayyorlanib to'quv, pardozlash va gazlamadan tortib, tayyor mahsulotlarni xalq iste'moliga chiqarish jarayonlari haqida ma'lumot keltirilgan.

S.K.Ziyodullayevning "Индустрия советского Узбекистана" monografiyasi 1984-yilda nashr etilgan bo'lib, sanoat sohasi tarixini o'rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Monografiyada sanoat sohasi tarmoqlarining yo'lga qo'yilishi, rivojlantirish masalalari o'rganiladi. Sohada qo'lga kiritilgan yutuqlar bilan birga kamchiliklar ham tilga olinadi. O'zbekiston Ittifoqda paxta xomashyosi va ipak tolasining asosiy ishlab chiqaruvchisi

[2]Qodirov B., Semyannikov I. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati. – T.: "O'zbekiston", 1984. – S. 7;
[3] Qodirov B., Semyannikov I. O'zbekistonda to'qimachilik sanoati. – T.: "O'zbekiston", 1984. – S.14.
[4] Марасулов Ш. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 23-24 б.
[5] Асанов Г., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 113 б.
[6] Файзиев Ҳ., Ҳакимов Ҳ. Тўқимачилик саноати статистикаси (тўқимачилик институтлари студентлари учун ўқув қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 226 б.

hisoblansada, birorta paxta tolasi va ipakni qayta ishlovchi fabrikaga ega emasligi tilga olinadi[7]. Mazkur monografiyada muallif sovet davrida O'zbekiston sanoatining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini tahlil qilib, sohada erishilgan natijalar bilan bir qatorda mavjud muammolarni ham ko'rsatib beradi. Ayniqsa, respublika Ittifoq miqyosida paxta xom paxta xomashyosi va ipak tolasi ishlab chiqarishda muhim o'rin tutgan bo'lsa-da, ularni chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalarining yetarli darajada rivojlanmagani alohida ta'kidlanadi. Bu holat respublika iqtisodiyotida xomashyo yetkazib berishga ustuvor ahamiyat berilganini ko'rsatadi. Shu jihatdan, S.K. Ziyodullayevning mazkur tadqiqoti sovet davrida O'zbekiston sanoat tarmoqlarining rivojlanish xususiyatlarini, xususan yengil sanoat va to'qimachilik sohasidagi muammolarni tushunishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi.

A. Uralovning ta'kidlashicha, yengil sanoat korxonalarining minglab muhandis-texniklari va ishchilari markaziy shaharlarning 15 ta instituti va 30 ta texnikumida o'z bilimlarini oshirib kelganlar[8]. Muallif ushbu jarayonni sanoat tarmoqlarini malakali kadrlar bilan ta'minlashga qaratilgan siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida izohlaydi.

O. Sirojovning "O'zbekiston sanoati urush yillarida" asarida qayd etilishicha, urush boshlanishi bilan yengil sanoatning ishlab chiqarish quvvati harbiy buyurtmalarni bajarishga yo'naltirilgan[9]. Muallif bu jarayon orqali respublika sanoatining qisqa muddat ichida front ehtiyojlariga moslashtirilganini hamda ishlab chiqarish tizimida ustuvor yo'nalishlar tubdan o'zgarganini ko'rsatadi.

F.Oripov va Q. Abduraxmonov[10] asarlarida esa, O'zbekistonda to'qimchalik sanoati taraqqiyoti uchun ishchi kadrlar tayyorlash tarixi va o'rni haqida ma'lumotlar mavjud.

Tadqiqotchi N.Sultonovning yozishicha, Farg'ona rayonida yengil sanoati paxta tozalash zavodlaridan tashqari "Atlas" ishlab chiqarish birlashmasi, Marg'ilon ipak kombinati, ipak to'quv va poyafzal fabrikalari, Farg'ona to'qimachilik kombinati, Namangan ipak gazlamalari kombinati, Andijon trikotaj fabrikasi kabi yirik korxonalarga ham ega bo'lgan. Shuningdkek, O'rta Osiyoda eng yirik hisoblangan Qo'qon paypoq yigiruv kombinati, respublikada yagona bo'lgan Sovetobod teri oshlash zavodi, Pop noto'qima materiallar fabrikasi, Quvasoy chinni zavodi va boshqa korxonalar bo'lgan[11]. Muallif ushbu ma'lumotlar orqali Farg'ona vodiysida yengil sanoatning yuqori darajada rivojlangan hududiy markazlardan biri sifatida shakllanganini ko'rsatadi. I. Mo'minovaning „История Узбекской ССР" asarida urush yillarida Toshkent to'qimachilik kombinati ishchilari har oy reja ustidan kamida 150ming metr gazlama va 100ming dona g'altak ip ishlab chiqarish, shuningdek, yil davomida mehnat unumdorligini 5 foizga oshirish majburiyatini olganlar[12]. Muallif ushbu holatni urush davrida sanoat korxonalarida ishlab chiqarish sur'atlarini oshirish va mehnat intizomini kuchaytirishga qaratilgan siyosat bilan bog'liq holda izohlaydi.

K. Sardiyev. va M. Parpixo'jayevning „Malikaning malikalari" kitobida ushbu kitobda „Malika" ishlab chiqarish birlashmasining ishchilari, ixtirochilari xullas, jonkuyar, mehribon kishilari haqida hikoya qilinadi. O'zbekistonda dastlabki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish Ulug' Vatan urushi yillariga to'g'ri keladi. Ozbek xalqining tabiiy xomashyolari: paxta,

---

[7] Зиядуллаев С.К. Индустрия советского Узбекистана. – Т.: "Узбекистан", 1984. – С. 46.

[8] Уралов А. Развитой социализм и научно-технический прогресс. Ташкент, «Узбекистан», 1982, 162-бет.

[9] Сирожов О. Ўзбекистон саноати уруш йилларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 9.

[10] Орипов Ф. Ўзбекистонда ишчи кадрларнинг ташкил топиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1968. – 135 б; Абдурахмонов К. Илмий-техник тараққиёт ва ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 21 б.

[11] Султонов Н. Фаргона иктисодий райони саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 9 б.

[12] Муминова И. История Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1974. – С. 410.

jun, ipakdan jilosi ko'zni qamashtiruvchi matolar ishlab chiqarishi qadim qadim zamonlardan dunyoga ma'lum, mashhurdir. Ammo, trikotaj mahsulotlari hali qo'l urilmagan soha edi, deb ta'kidlangan[13].

Sovet davri tarixshunosligida yengil sanoatining tarkibiy qismi bo'lgan to'qimachilik va trikotaj sanoati respublika sanoat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida talqin etilib, asosan reja ko'rsatkichlari va ishlab chiqarish hajmlariga urg'u berilgan. Biroq mazkur adabiyotlarda tarmoq rivojidagi cheklovlar va ichki muammolar yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli, sovet davri to'qimachilik sanoatidagi o'zgarishlar haqida muhim ma'lumotlar bersa-da, unda jarayonlar ko'proq sovet iqtisodiy siyosatini ijobiy ruhda talqin qilish asosida yoritilganini ko'rish mumkin. Mazkur holat sovet davri tarixshunosligining o'ziga xos jihatlarini namoyon etar ekan, mustaqillik davrida chop etilgan ilmiy adabiyotlarda ushbu masalalar yangicha metodologik asosda qayta ko'rib chiqildi.

Xususan, Q.Usmonovning ,,O'zbekiston tarixi'' kitobida , bu davrda O'zbekistonda yengil sanoat bir tomonlama rivojlanishga yo'naltirilgan.Asosiy e'tibor paxta qabul qilish,paxta tozalash,pillakashlik, qorako'l teriga va kanop tolasiga dastlabki ishlov berish, jun yuvish tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan. O'zbekiston bunday xomashyolardan tayyor mahsulotlar tayyorlash imkoniyatiga ham,huquqiga ham ega emas edi[14] deb aytib o'tgan. Bundan ko'rinib turibdiki, sovet davrida O'zbekistonda yengil sanoat rivojlanishi asosan xomashyoni dastlabki bosqichlarda qayta ishlashga yo'naltirilgan. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanganligi respublika sanoatining iqtisodiy mustaqilligi va o'zini ta'minlash salohiyatini cheklab, markaziy hokimiyatning nazorati ostida bo'lgan jarayonlarni ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan, Usmonovning kitobi sovet davrida O'zbekistonda yengil sanoat, xususan to'qimachilik va trikotaj tarmoqlarining holati va faoliyatini o'rganishda tadqiqotlarda yordam beradi.

Mustaqillik davri muallifi To'xliyev ma'lumotlariga ko'ra, urushdan keyingi yillarda yengil sanoat tarmoqlarini kengaytirish maqsadida 1950-yilda Samarqand hamda Andijon shaharlarida trikotaj fabrikalari faoliyati yo'lga qo'yilgan[15]. Ushbu holat yengil sanoatni rivojlantirishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilganini ko'rsatadi, biroq ishlab chiqarishning asosiy yo'nalishi asosan xomashyoni dastlabki qayta ishlash bosqichi bilan cheklangan holda qolgan.

Mustaqillik davri tadqiqotchilari Shamsuddinov va Mo'minovning ta'kidlashicha, O'zbekistonda yiliga o'rtacha 1,5 million tonna paxta tolasi yetishtirilgan bo'lib, respublika to'qimachilik sanoati ushbu hajmning atigi 10 foizini qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish imkoniyatiga ega bo'lgan, qolgan qismi esa boshqa hududlarga olib ketilgan[16]. Ushbu holat sovet davrida O'zbekiston yengil sanoatining, xususan to'qimachilik tarmog'ining asosan xomashyo yetkazib beruvchi baza sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

N. Karimov va Sh. Jo'rayevning ta'kidlashicha, sho'rolar hukumati iqtisodiy siyosatida O'zbekistonni asosan xomashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllantirishga alohida e'tibor qaratgan. Shu bilan birga, yengil va oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalarni rivojlantirish markaziy rejalashtirish tizimi doirasida amalga oshirilgan[17]. Ushbu fikrlar sovet davrida respublika sanoat tarmoqlarining rivojlanishi markazlashgan boshqaruv tizimi va iqtisodiy ixtisoslashuv siyosati bilan uzviy bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

---

[13] Сардиёв К., Парпихўжаев М. Малика нинг маликалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 4–5 б.

[14] Usmonov Q., Sodiqov M. Ozbekiston tarixi. Toshkent: Sharq, 2010. 206 b.

[15] Тўхлиев Н. Узбекистон Республикаси иқтисодиёти. Т: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1998. 70 б.

[16] Shamsutdinov R., Mo'minov X. Ozbekiston tarixi. Toshkent: Sharq, 2013. 476b.

[17] Jo'rayev N., Karimov Sh., O'zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 522.

I. Xaydarovning ta’kidlashicha, to’rtinchi besh yillikda yengil sanoatda Toshkent trikotaj fabrikasi, Namangandagi sun’iy tola ishlab chiqaruvchi fabrikasi ishga tushirilgan[18]. Muallif bu jarayonni urushdan keyingi davrda respublika yengil sanoatini tiklash va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga qaratilgan sanoat siyosatining muhim bosqichi sifatida izohlaydi. “O’zbekiston tarixi” (ikkinchi kitob) asarida ta’kidlanishicha, Ikkinchi jahon urushi yillarida O’zbekiston yengil sanoatiga faqat salbiy baho berish to’g’ri emas. Mualliflar fikricha, yengil sanoat ishchilari murakkab sharoitlarda fidokorona mehnat qilgan hamda turli ixtirolar va takliflar orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga erishgan[19].

Mustaqillik davri tadqiqotchilaridan biri D. Bobojonovaning ta’kidlashicha, Toshkent to’qimachilik fabrikasiga Moskva, Riga, Penza, Kuznesk va Ivanovo shaharlaridan keltirilgan dastgohlar o’rnatilgan[20]. Muallif bu jarayonni urushdan keyingi yillarda respublika to’qimachilik sanoatini texnik jihatdan qayta jihozlash va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan siyosatning muhim yo’nalishi sifatida izohlaydi. Sovet davrida yengil sanoatda “qoldiq prinsipi” asosida olib borilgan siyosat mahalliy iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga hamda ularning katta qismini tashqi hududlardan keltirishga olib kelgan. Tadqiqotlar ushbu holatni respublikada iste’mol bozori ta’minotining cheklanganligi va iqtisodiyotning bir tomonlama rivojlanishi natijasida ayrim ijtimoiy nomutanosibliklarning kuchayishiga ta’sir ko’rsatgan omillardan biri sifatida izohlaydi[21].

Maksudov va Haitovning ta’kidlashicha, urushdan keyingi o’n yillikda (1946–1955) Ittifoq, jumladan O’zbekistondagi to’qimachilik korxonalariga 5 million komplekt yig’uv va 68 ming to’quv dastgohlari yetkazib berilgan. Shu bilan birga, mavjud to’qimachilik dastgohlarining yangilanish jarayoni sust kechgan bo’lib, bu holat ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga ma’lum darajada to’sqinlik qilgan, bu esa ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini cheklagan[22].

Uchinchi guruhga kiruvchi xorijiy adabiyotlarda O’zbekiston to’qimchalik va trikotaj mahsulotlari tarixi bo’yicha deyarli ma’lumotlar berilmagan[23].

---

[18] Хайдаров И., Ўзбекистон саноатининг Совет Иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни. – Т.: Тошкент, 2019. – Б. 95.

[19] O‘zbekiston tarixi. 2-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 35.

[20] Бобожонова Д., Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70–80-йиллар мисолида). – Т.: «Шарқ», 1999. – Б. 98.

[21] Жураев М., Нуруллин Р., Камолов С. ва бошқ., Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Узбекистан совет мустамлакачилиги даврида. Т.: «Шарк», 2000. – Б. 522.

[22] Maksudov R.X., Haitov I.S., To‘qimachilik tarixi. – T.: Toshkent, 2015. – B. 26

[23] Alec Nove. An Economic History of the USSR 1917–1991. – London: Penguin Books, 1992. – P. 462. Michael Ellman. Soviet Planning Today: Proposals for an Optimally Functioning Economic System. – Cambridge: Cambridge University Press, 1972. - P.219. Philip Hanson. The Rise and Fall of the Soviet Economy: An Economic History of the USSR from 1945. – London; New York: Routledge, Taylor & Francis Group, 2003. – P. 244. Jukka Gronow, Sergey Zhuravlev. “Economic Development and Standard of Living in the USSR after the Second World War: A Consumer’s Perspective.” In: Fashion Meets Socialism: Fashion Industry in the Soviet Union after the Second World War. – Helsinki: Finnish Literature Society. – Available at: https://www.jstor.org/stable/j.ctvggx2cr.6 Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca; London: Cornell University Press, 2015. – P. 438. Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Ithaca; London: Cornell University Press, 2006. – P. 319.

Xulosa o’rnida shuni aytish kerakki, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, O’zbekiston to’qimachilik va trikotaj sanoati turli davrlarda turlicha yondashuv asosida o’rganilgan. Sovet davri tadqiqotlarida asosan sanoat yutuqlari va ilg’or ishchilar faoliyati targ’ib qilingan bo’lsa, mustaqillik davrida masalaga nisbatan xolis va tanqidiy yondashuv kuchaygan. Xorijiy adabiyotlarda esa mazkur masala umumiy iqtisodiy jarayonlar doirasida yoritilib, alohida tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mavzuni yanada chuqur va mukammal o’rganish dolzarb hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alec Nove. An Economic History of the USSR 1917–1991. – London: Penguin Books, 1992. – P. 462. Michael Ellman. Soviet Planning Today: Proposals for an Optimally Functioning Economic System. – Cambridge: Cambridge University Press, 1972. - P.219. Philip Hanson. The Rise and Fall of the Soviet Economy: An Economic History of the USSR from 1945. – London; New York: Routledge, Taylor & Francis Group, 2003. – P. 244. Jukka Gronow, Sergey Zhuravlev. “Economic Development and Standard of Living in the USSR after the Second World War: A Consumer’s Perspective.” In: Fashion Meets Socialism: Fashion Industry in the Soviet Union after the Second World War. – Helsinki: Finnish Literature Society. – Available at: https://www.jstor.org/stable/j.ctvggx2cr.6 ﷺ Adeeb Khalid. Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca; London: Cornell University Press, 2015. – P. 438. Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan: Islam, Modernity, and Unveiling under Communism. – Ithaca; London: Cornell University Press, 2006. – P. 319.
2. Shamsutdinov R., Mo'minov X. Ozbekiston tarixi. Toshkent: Sharq, 2013. 476b.
3. Зиядуллаев С.К. Индустрия советского Узбекистана. – Т.: “Узбекистан”, 1984. – С. 46.
4. Сардиёв К., Парпихўжаев М. Малика нинг маликалари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 4–5 б.
5. Тўхлиев Н. Узбекистон Республикаси иқтисодиёти. Т: Узбекистон миллий энциклопедияси, 1998. 70 б.
6. Файзиев Ҳ., Ҳакимов Ҳ. Тўқимачилик саноати статистикаси (тўқимачилик институтлари студентлари учун ўқув қўлланма). – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 226 б.
7. Jo‘rayev N., Karimov Sh., O‘zbekiston tarixi. – T.: Sharq, 2011. – B. 522.
8. Maksudov R.X., Haitov I.S., To‘qimachilik tarixi. – T.: Toshkent, 2015. – B. 26
9. O‘zbekiston tarixi. 2-kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B. 35.
10. Qodirov B., Semyannikov I. O‘zbekistonda to‘qimachilik sanoati. – T.: “O‘zbekiston”, 1984. – S.14.
11. Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. Toshkent: Sharq, 2010. 206 b.
12. Асанов Г., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 113 б.
13. Бобожонова Д., Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар (70–80-йиллар мисолида). – Т.: «Шарқ», 1999. – Б. 98.
14. Жураев М., Нуруллин Р., Камолов С. ва бошқ., Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Узбекистан совет мустамлакачилиги даврида. Т.: «Шарк», 2000. – Б. 522.
15. Марасулов Ш. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 23-24 б.
16. Муминова И. История Узбекской ССР. – Т.: Фан, 1974. – С. 410.

17. Орипов Ф. Ўзбекистонда ишчи кадрларнинг ташкил топиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1968. – 135 б; Абдурахмонов К. Илмий-техник тараққиёт ва ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 21 б.
18. Сирожов О. Ўзбекистон саноати уруш йилларида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – Б. 9.
19. Султонов Н. Фаргона иктисодий райони саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 9 б.
20. Ўзбекистон енгил саноати. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1959.; Зименко В., Кириленко В. Марғилон ипаги. – Тошкент: Ўздавнашр, 1960. – 60 б.; Зиёдуллаев С. Ўзбекистон енгил саноатини ривожлантириш истиқболлари. – Тошкент: Фан, 1972. – 64 б.; Марасулов Ш.Р. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 36 б., Ходжаев Ш. От тележки – к конвейру // Экономика и жизнь. 3 марта 1973 года. – С. 41-43.; Ковынев Н. Андижанская трикотажная // Экономика и жизнь. 3 марта 1973 год.; Раимқулов С. ва б. Енгил саноат - халқ хўжалиги комплексининг муҳим бўғини. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 16 б.; Балтаев Т. Сбалансированность спроса и предложения товаров легкой промышленности. (региональные проблемы). – Ташкент: Фан, 1986.; Веревкина Н. С полной мерой ответственности // Партияная жизнь. 1989. №2. – С. 25-26.
21. Уралов А. Развитой социализм и научно-технический прогресс. Ташкент, «Узбекистан», 1982, 162-бет.
22. Хайдаров И., Ўзбекистон саноатининг Совет Иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни. – Т.: Тошкент, 2019. – Б. 95.